Qoraqalpog‘iston Ustyurti Sharqiy chink yaylovlarining davlat kadastri tuziladi

O‘zR FA Botanika instituti Geobotanika laboratoriyasi ilmiy xodimlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘simliklar qoplami va yaylov resurslarining zamonaviy holatini baholash” dasturi, shuningdek, Botanika instituti va Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjang (Xinjiang) Ekologiya va geografiya instituti o‘rtasida tuzilgan “Orolbo‘yi hududining ishqoriy sho‘rlangan yerlarini ekologik boshqarish” mavzusidagi xalqaro grant, O‘zbekiston botaniklari jamiyati tomonidan bajarilayotgan “Orol dengizining qurigan tubi o‘simlik qoplamini chuqur tadqiq etish asosida hudud florasining zamonaviy ro‘yxatini shakllantirish, raqamli ma’lumotlar bazasi va genofond kolleksiyalarini yaratish” loyihasi doirasida Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq tumanlari – Ustyurtning sharqiy chinki va Orol dengizining qurigan tubi hududlarida dala ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi.

Dala tadqiqotlari davomida sharqiy chinkda tarqalgan yaylov xillarini gorizontal, rel’ef va edafik omillarga nisbatan o‘zgaruvchanligini aniqlash uchun Akbulak, Kabanbay, Kurganshakala, Kassarma, Duana geografik punktlarida 5 ta profil asosida 26 ta dala korrektirovkasi qilindi, sharqiy chinkning kalit hududlarda hamda Orol dengizi qurigan tubida 100 dan ortiq geobotanik qaydnomalar to‘ldirildi. Tadqiqot hududining floristik va fitosenotik xilma-xilligi o‘rganildi, u yerda tarqalgan bug‘doyiqzor, efedrazor, shuvoqzor, quyrovuqzor, buyurg‘unzor va oqboyalishzor yaylov tiplariga mansub yaylov xillarining kechki bahorgi-yozgi hosildorligini aniqlash uchun transektlar tashlandi, shu hududda tarqalgan yaylovlarining yaylov xillarining joylashgan joyi, suv bilan ta’minlangani, tuproq qatlami xususiyati, loyiha bo‘yicha qoplanish darajalari, o‘simliklarning landshaft turlari, ularning joylashuvi, zichligi, zaharli va begona o‘simliklarning mavjudligi, ozuqa massasining hosildorligi, yaylovlarning payhonlanish darajasi, kabi ma'lumotlar asosida birlamchi dala-kadastr ma’lumotlari to‘plandi. Kolleksiya qilish uchun Fritillaria karelini, Astragalus amarus urug‘lari yig‘ildi, Lazareva orolidagi o‘simliklar qoplami bo‘yicha ma’lumotlari to‘plandi, Orol dengizi qurigan tubini to‘r tizimli xaritalash uchun gerbariy materiallari yig‘ildi.

Laboratoriya ilmiy xodimlari tomonidan dala tadqiqot hududlaridan to‘plangan ma’lumotlar asosida Qoraqalpog‘iston Ustyurti Sharqiy chink yaylovlarining tasnifi, “Yaylovlar xaritasi”, “Yaylovlar sig‘imi xaritasi” “Yaylovlardan mavsumiy foydalanish xaritasi” ishlab chiqiladi va tavsiflanadi.

Qoraqalpog‘iston Ustyurti Sharqiy chink yaylovlarining davlat kadastri tuziladi. Shuningdek, Orol dengizining qurigan tubi florasining zamonaviy ro‘yxati shakllantiriladi. Senopopulyatsiyalarning ontogenetik strukturalari, tiplari, qarish va tiklanish indekslari, ekologik optimumi kabi ko‘rsatkichlari asosida kamyob va endem o‘simliklar populyatsiyalarining zamonaviy holati baholanadi. “Orolqum” milliy tabiat bog’i yuksak o‘simliklarining hudud bo‘ylab tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritasi yaratiladi.